

## IMOM BUXORIY ILMIY ME'ROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Rasulova Muslima Ibrohimjon qizi**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti Islomshunoslik yo'nalishi

magistratura bosqichi 1-bosqich talabasi.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Movarounnahrda yetishib chiqqan va butun islom dunyosida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan mashhur muhaddis alloma Imom Buxoriy hazratlarining hayot yo'li, faoliyati va asarlari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Shuningdek, Imom Buxoriyning hadis ilmidan tashqari fiqh, tafsir, tarix kabi ilmlar bilan shug'ullanib, ushbu ilmlar borasida yozgan asarlari haqida Imom Buxoriyning boy ilmiy merosi, uning hozirgi kundagi ahamiyati, asarlarining o'rganilishi haqida ham ko'plab ma'lumotlar berildi.*

***Kalit so'zlar:** Muhaddis, Imom Buxoriy, tafsir, fiqh, ilm, Qubbat-ul islom, sahih hadis, g'ayri hadis, isnod, roviy, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 1225 yillik yubileyi, Imom Buxoriy yodgorlik majmui.*

IX-XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lgan bo'lsa, islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko'tariladi. Azaldan savodli bo'lgan, madaniyat darajasi yuqori darajaga ko'tarilgan Movarounnahr xalqi tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi. Shuningdek, o'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda Buxoro shahri alohida o'rinni egallaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasa-yu, maktablarning borligi bu yerda

yetuk ilohiyot fan namoyondalarini yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab "Qubbat-ul islom" – "Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topa boshlaydi<sup>1</sup>. "Muhaddislar sultoni" degan nomga ega bo'lgan Imom Buxoriyning nomlari hamisha hurmat-ehtirom bilan tilga olinadi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim Mug'iyra Buxoriy hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni, milodiy 810-yil 20-iyulda Buxoroda tavallud topdi. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatli, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egalladi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustoz shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. O'n olti yoshga yetguncha Imom Buxoriy o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, ulardan saboq oladi. Mana shundan keyin, islomiy ilmlarning markazi, Payg'ambar alayhissalomning vatani, Qur'oni karim nozil bo'lgan muqaddas diyor – islom dinining markazi Hijozi sharifga bordi.

Imom Buxoriy 825-yili onasi va akasi Ahmad bilan Makkai Mukarramaga yetib kelib, haj ibodatini ado etganidan keyin onasi va akasini Buxoroga qaytarib yuborib, o'zi Makkada qoldi va muqaddas shahar mashoyixlarining ilmiy yig'inlariga qatnasha boshladi. O'sha paytda Makkada istiqomat qilayotgan bir qancha ko'zga ko'ringan ulamolar bo'lib, ulardan hadis ilmi sohasida mashhurlardan imom Abu Valiy ibn Arzaqiy, Abdulloh Zubayr va alloma Hamidiylarni ko'rsatish mumkin. 827-yilda, o'n sakkiz yoshida Payg'ambar alayhissalomning ravzai muboraklari qo'yilgan muqaddas shahar Madinai Munavvaraga yetib keldi. Shu paytda Madinai Munavvarada ko'zga ko'ringan mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza, Abu Sobit Muhammad ibn Ubaydulloh, Abdulaziz ibn Abdulloh Uvaysiy kabi yetuk olimlar faoliyat ko'rsatardilar.

Imom Buxoriy ushbu ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha ko'pdan ko'p saboq oldi. Bu yerda o'zining dastlabki asari "At-tarix al-kabir" ("Katta

---

<sup>1</sup> A.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent; 2018. – B. 390.

tarix”)ning qoralamasini tugatdi<sup>1</sup>. Keyinchalik, Shom, Misr, Falastin va Iroq shaharlarini kezib, bir qancha arablar orasida yurdi. Shu tariqa 600 ming hadis to‘plab, bulardan 100 ming “Sahih” va 200 ming, “Hasan” hadislarni yod olgan, 600 ming hadisdan 7265 tasini, “Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plami”) kitobiga kiritdi. Umri davomida jami 20 dan ortiq asarlar yozgan. Bu kitob “Sahihul Buxoriy” nomi bilan ham yuritiladi. Bu asarga kiritilgan ishonchli hadislar soni takrorlanadiganlari bilan 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan hadislar 4000 tadir. Asar yozilganligiga 1200 yil vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, shu vaqtgacha u islom olamida Qur’ondan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba vazifasini o‘tab kelmoqda. O‘rta asrda yashagan ba’zi adib va xattotlar uchun bu kitob nusxalarini ko‘chirish tirikchilik vositasi ham bo‘lib kelgan. Taniqli adib va ilohiyotchi olim Nuvayriy (vafoti 1332) undan sakkiz nusxa ko‘chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. Uning 1325-yili ko‘chirilgan nodir nusxasi Istanbulda saqlanmoqda. “Al-jome as-sahih”ga ko‘plab sharhlar bitilgan. Imom Buxoriy to‘plagan hadislarda faqat Islom dini ta’limotiga oid qoidalar aks ettirilibgina qolmay, ular mehr-muhabbat, halollik, poklik, sahiylik, ota-ona, kattalarga hurmat, yetim-yesir, beva-bechoralarga muruvvat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat kabi oliyjanob insoniy fazilatlar majmuasidir<sup>2</sup>. Tafsir ilmi. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy buyuk muhaddis olim bo‘lish bilan birgalikda Qur’on oyatlari nimaga dalolat qilishini juda yaxshi bilar edi. U Qur’on va hadisdan shar’iy masala bo‘yicha hukm chiqara olish qudratiga ega edi. Uning “Sahih”idagi tafsir kitobini va “At-tafsir al-kabir” asari bu sohada ham tengsiz ekanligiga yorqin misol bo‘ladi.

Hadislardan hukm olishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini a’lo darajada o‘rgangan Imom Buxoriy hadis ilmi bilan shug‘ullanish bilan birgalikda fiqh ilmi bilan ham mashhur bo‘lgan. U yoshligidan boshlab, “Ahli ray” mazhabini juda yaxshi o‘rgandi. U sahobalarning so‘zlari va tobe’inlarning fatvolarini yaxshi o‘rgandi. U hatto 18 yoshida ularga bag‘ishlab bir mustaqil asar yozdi. Uni buyuk faqih va tengsiz mujtahid ekanligini juda ko‘p ustozlari ta’kidlaganlar:

<sup>1</sup> T.Xatamov. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. – Toshkent; 2020. – B. 82.

<sup>2</sup> Xoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent; 2005. – B. 48.

Nua'ym ibn Hammod Xazzo'y: "Muhammad ibn Ismoil bu ummatning faqihidir" – deb, Muhammad ibn Bashshor (Bundor) "Muhammad ibn Ismoil zamonamizning eng faqihidir." – deya va Buhoriy hazratlari Basraga kelganlarida esa, "Bugun faqihlar sayyidi tashrif buyurdi" – deb alohida e'tirof etishgan. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy "Sahih"ning boblarini tartibga solishda fiqhiy masalalarga alohida e'tibor qaratgan. U buni shu darajada noziklik va latiflik bilan amalga oshirdi. Buhoriyning "Sahih" asari va boshqa asarlariga qarab shularni aytish mumkinki, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy hech kimga taqlid qilmagan holda o'ziga hos ilmiy maktab yaratdi.

"Al-adab al-mufrad" ("Adab haqida yagona kitob") allomaning axloq va odobga oid hadislar jamlanmasi bo'lib, 644 bobdan iborat. Jami 1322 ta hadis jamlangan. Bu asarda boshqa muhaddislar kitoblarida uchramaydigan bir qancha hadislar ham berilgan. Asarning yana bir qimmatli tomoni shuki, undagi hadislarini yozib olgan hadis rivoyatchilari (isnodlar) boshqa muhaddislar isnodlariga nisbatan ancha ishonchli kishilar bo'lgan. "Al-adab al-mufrad" qo'lyozmalari Sharq va G'arbning juda ko'p kutubxonalarida mavjud. U 1898-yili Hindistonda, 1930-yil Qohirada, 1970 va 1980-yillari O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashabbusi bilan ikki marta arab tilida nashr etildi. Uning 600 hadisdan iborat 267 bobi taniqli islomshunos olim Shamsiddin Boboxonov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1990-yilda "O'zbekiston" nashriyatida chop etilgan. "Al-adab al-mufrad"ning 1-24-boblari ota-onaga xizmat qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, ayniqsa, qarigan chog'ida ularni e'zozlab parvarish qilish, diliga ozor bermaslik, ularning haqqini ado etish masalalariga bag'ishlangan. Bundan tashqari "Kitob al-kuna" ("Kunyalar haqida kitob")roviylarning kunyalariga bag'ishlangan asar; "At-tarix al-kabiyr" kitobi Turkiyada 9 jildda nashr qilingan; "At-tarix as-sog'iy" ("Kichik tarix") asari hadis tarixiga oid qimmatli asar; "Kitob al-favoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"); "Al-jomi' al-kabiyr" ("Katta tayanch"); "Xalq af'ol al-ibod"("Alloh bandalari ishlarining tabiati"); "Al-musnad al-kabiyr" ("Katta tayanch"); "At-tafsir al-kabiyr"

(“Katta tafsir”); “Kitob al-xiba” (“Xayr ehson haqida kitob”) va boshqa asarlarining ba’zilari bizgacha yetib kelmagan<sup>1</sup>.

Buxoriy o’rta bo’yli, ozg’in va o’rta gavdali edi. Uning ko’plab yaxshi odatlaridan tashqari, u kam gapiradigan va boshqalarga taqlid qilmaslik kabi fazilatlarga ega edi. Yeb-ichish haqida qayg’urmasdi. Uning saxovatligi, dunyo mulkini mensimasligi, ko’makchiligini ko’rsatadigan ko’plab xulq-atvori bor. Uning 25000 dirham qarzi bo’lgan kishiga nisbatan bag’rikengligi diqqatga sazovordir. Anchadan beri qarzni to’lamagan bu shaxsga qarzini ba’zi ma’murlar orqali undirishni maslahat berganlarga “Ulardan yordam so’rasam, o’zlari xohlagancha fatvo berishimni so’raydilar, Dunyo manfaati uchun dinimni sota olmayman” – degan ekanlar<sup>2</sup>.

Imom Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, “Fathul-Boriy”, “Al-Kavkab ad-daroriy”, “Irshodus-sariy”, “Umdat al-qoriy”, “Fayzul-boriy” va boshqa ko’plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin. Imom Buxoriyning ilmiy merosi o’zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to’la-to’kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi”<sup>3</sup>.

Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday

<sup>1</sup> R.Shamsutdinov, H.Mo`minov. ”O`zbekiston tarixi”. - Toshkent-2021. 85-bet

<sup>2</sup> <https://islamansiklopedisi.org.tr/buhari-muhammed-b-ismail>

<sup>3</sup> <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>

ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning bebaho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini to'plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda. Albatta, bunaqangi meroslarimiz hozirgi davrda va bundan oldingi davrlarda ham ancha bo'lgan. Chunki, O'zbekiston "Buyuklar yurti" – deya ta'riflanadi. Ayniqsa, din borasida ham dunyoviy bilimlar borasida ham ma'naviy-madaniy, tarixiy-ilmiy meroslarimiz anchagina. Ana shunday buyuk muhaddis allomalarimizdan Imom Buxoriy hazratlarining boy ilmiy meroslari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hanuzgacha yo'qotmay kelmoqda. Chunki hadis islomda Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi muqaddas manbadir. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.Shamsutdinov, H.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent; 2021.
2. A.S.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent; Donishmand ziyosi, 2021.
3. T.Hatamov. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. – Toshkent; Ijod-Press. 2020.
4. Xoji Ismatulloh Abulloh. Markaziy Osiyo islom madaniyati. – Toshkent; Sharq, 2005.
5. [islamansiklopedisi.org.tr/buhari-muhammed-b-ismail](http://islamansiklopedisi.org.tr/buhari-muhammed-b-ismail)
6. <https://www.bukhari.uz/?p=18064&lang=oz>
7. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>